

2. Хаматов Ш. Нейтронно-активационный анализ геохимических объектов при поисках золоторудных месторождений и оценке биогеохимической ситуации в Среднеазиатском регионе. Дисс. на соискание уч. степени д.т.н. -М.: 1991, -С.485.

3. Исаев Б. Физиологические и агрохимические основы питания хлопчатника микроэлементами. –Ташкент: «Фан», 1979, -С.259.

4. Саттаров Г., Кист А.А., Хаматов Ш. Применение газовой термохроматографии в радиоактивационном анализе. Радиохимия, 1980, т. 22, № 6, -С. 898-904.

РЕЗЮМЕ

Маколада кичик нейтронли фаол тахлил усули билан пахта экиладиган ерларнинг тупроғи таркибидаги кимёвий элементларнинг тарқалиши ва унинг параметрларини ҳисоблаш баробарида тупроқ таркибининг аналитик дисперсиялари тахлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются методы мультиэлементного инструментального нейтронно-активационного анализа распределения и расчёт его параметров вместе с аналитической дисперсией химических элементов в составе почвы, отведённой для посадки хлопчатника.

SUMMARY

The article deals with the methods of multielementary instrumental neutron-activative analysis of distribution and calculation of its parameters with analytical dispersion of chemical elements in the structure of soil, taken for landing cotton plant.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ELLIKQAL'A TUMANI ISHLAB CHIQUARISH SOHALARINING RIVOJLANISHI

A.Iskenderov - katta o'qituvchi

O'Kazbekov - Geografiya o'qitish metodikasi mutaxassisligi talabasi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: "Ellikqal'a oltin tolası" AJ, mehnat resurslari, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat.

Ключевые слова: "Ellikqal'a oltin tolası" OA, трудовые ресурсы, сельское хозяйство, лёгкая промышленность.

Key words: "Ellikqal'a oltin tolası" JSC, labor resources, agriculture, light industry.

Ellikqal'a tumani - Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy tumanlari ichida qulay transport-iqtisodiy sharoitiga ega bo'lib, respublikaning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tuman 1977-yili tashkil topgan bo'lsa ham uning iqtisodiyot sohalarining rivojlanishi erta davrlardan boshlandi. Ellikqal'a tumanining asosiy sanoat tarmoqlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Og'ir sanoat tarmoqlari ichki imkoniyatlardan kelib chiqib past rivojlangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Har bir tuman va shaharda yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarining subvensiyadan chiqarishni so'zsiz ta'minlash kerak" [1]. Yurtboshimizning bu nutqida kichik mintaqalarni, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi barcha tumanlarini iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida moliyaviy ta'minlash ishlari nazarda tutilgan.

Sanoat iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari turli korxonalar va zavodlardan iborat. Tumandagi sanoat korxonalari bugungi kunga kelib, o'zining boshqarish shaklini o'zgartirgan yoki xususiy lashtirilgan. Xususiy lashtirilgan sanoat korxonalari bozor munosabatlarga xos talab va taklif asosida ish olib bormoqda.

Tumanning asosiy sanoat korxonalari qatoriga yengil sanoat, jumladan, "Ellikqal'a oltin tolası" AJ, "Yuniver" QK, oziq-ovqat sanoati, un-krupa sanoati va boshqa sanoat tarmoqlari mavjud.

Tumanning sanoat kompleksining rivojlanishida Charjov (hozirgi Turkmanobod)-Qo'ng'iro't-Beyneu va Nukus-Miskin-Uchquduq temir yo'llarining ishga tushishi, Buyuk ipak yo'lining tuman hududidan o'tishi tumanning iqtisodiy ko'rsatkichlarida muhim o'rin egallaydi.

Tumanning sanoat tarmoqlarining rivojlanishi asosan qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga bevosita bog'liq. So'nggi yillarda suv resurslarining kamayishi va dehqonchilik tarkibining o'zgarishi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelmoqda.

Quyidagi jadval asosida Ellikqal'a tumanining so'nggi yillardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi va tarmoqlarining nisbiy ulishi keltirilgan:

Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil
Asosiy sanoat korxonalari soni:	93	101
Shulardan nodavlat shakldagi:	93	101
Mahsulot hajmi (qiyosiy bahoda) mln so'm:	86785,1	101521,6
O'tgan yilga nisbatan o'sish(%)	112,2	117,0
Sanoat korxonalarida ishchi xizmatchilari soni (kishi):	658	671
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan XIM (ming so'm)	277,6	329,6
Shahar bo'yicha davlat tasarrufidan chiqqan korxonalar soni hajmi:	-	-

**Jadval Ellikqal'a tuman ijtimoiy-iqtisodiy pasporti asosida tuzilgan*

Chunonchi, tumanning asosiy sanoati hisoblangan yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bevosita hozirgi bor imkoniyatlardan yoki tumanning asosiy xomashyo resurslari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq.

Yengil sanoat tuman sanoat kompleksining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Yengil sanoatning asosiy tarmoqlari paxta tozalash, ip kalaba, kiyim tikish bo'lib, ular ichida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hajmi bo'yicha eng asosiy o'rinni paxta tozalash korxonalari egallaydi.

Keyingi vaqtda "Ellikqal'a oltin tola" AJ ning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari ortib bordi. Paxta tolası yetishtirish, chigit ishlab chiqarish ham ko'rsatilgan yillar ichida birmuncha ko'paygan. Lekin paxta tozalash zavodlarida ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, asosan iplarning, paxta tolasining sifati birmuncha past hisoblanadi. Shu sababdan korxona texnologik uskunalash jarayonini yaxshilashni ham talab etadi. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga yo'l ochadi.

Umuman olganda, Ellikqal'a tumanining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida sanoat kompleksi past darajada bo'lsa ham uning hozirgi rivojlanish darajasida ko'plab rezervlarning bor ekanligi ma'lum. Og'ir sanoat tar-

moqlari, yirik to'qimachilik korxonalari, yirik qurilish materiallari sanoati korxonalari tuman hududida qurish imkoniyatiga ega.

Ammo, tumanning qishloq xo'jaligiga, asosan dehqonchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarga ega bo'lishiga qaramasdan oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash to'liq amalga oshmagan. Shu sababdan tuman sanoat kompleksining rivojlantirish masalalarini tahlil qilganda asosiy e'tiborni xomashyo resurslari bilan to'liq ta'minlanish darajasiga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ellikqal'a tumani Qoraqalpog'iston Respublikasi agrosanoat majmuasining ham muhim tarmog'i hisoblanadi. Tuman iqtisodiyotining eng asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligidir.

Tuman xo'jaligining tarmoqlararo tizimida qishloq xo'jaligi, asosan paxtachilik, chorvachilik, meva, poliz ekinlari muhim o'rin egallaydi. Shundan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, asosan paxtachilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda [3].

Ellikqal'a tumani Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtirilgan paxtaning 10-12% ini yetkazib beradi. Lekin paxtadan olingan mahsulot hosildorlikning o'sishi hisobidan emas, ekin maydonlari ko'payishi hisobidan ko'paygan. Paxtachilikning bunday ekstensiv yo'l bilan rivojlanishining sababi Orol dengizi suvining kamayishi natijasida dengizdan ko'tarilgan tuzli changlar evaziga tuproqning sho'rlanishiga, iqlim sharoitining o'zgarishiga olib kelishidir. Chunki, tuman qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yer va suv resurslari muhim omil sanaladi. Sababi, dehqonchilikning barcha turlari asosan sug'orilib ekiladigan ekinlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini sifat tomondan yuqori rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligida bor bo'lgan imkoniyatlardan to'la foydalanishning ahamiyati yuqori. Dehqonchilikda paxta, g'alla va boshqa ekin turlarining hosildorligini ko'paytirish talab etadi. Tuman xo'jaliklari so'nggi yillari qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi mashinalari, qo'shimcha texnika vositalari, qishloq xo'jaligini boshqarish va yuritish uchun malakali mutaxassislar, kadrlar bilan ta'minlanmoqda. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hozirgi bosqichida yerning hosildorligini oshirish, agrosanoat tizimini intensiv rivojlantirishda iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ahamiyatli tadbirlardan biri hisoblanadi [2].

Shuning uchun tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi o'rta va kichik korxonalarni qurish, tumanning ichki imkoniyatlarini e'tiborga olib, qishloq xo'jaligida ekin strukturasi qayta ko'rib chiqish, poliz va sabzavot, uzumchilik, bog'dorchilikni rivojlantirish hamda tumanda yetarli bog'dorchilik tajribasiga ega aholining va mehnat resurslarining mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Bundan tashqari, tuman qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini oshirishda mahalliy o'g'itlardan keng foydalanish, dehqonchilikda almashlab ekishni ilmiy asosda olib borish, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini oshirish kabi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu esa tumandagi ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlanishiga, ya'ni ishsizlik muammasining hal bo'lishiga, bu esa o'z navbatida aholining turmush sharoitining yaxshilanishiga, tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" 2017
2. Rizaev K. Рыночная проблема в сельской экономике Каракалпакстана. –Нукус: "Каракалпакстан", 1993.
3. Umarov E. Qaraqalpaqstan geografiyasi. –Nukus: "Bilim", 2015.
4. Ellikqal'a tumani ijtimoiy-iqtisodiy pasporti, 2005, 2008, 2013, 2015.

Maqolada Ellikqal'a tumani ishlab chiqarishi tarmoqlari va qishloq xo'jaligi sohalarining hududiy joylashuvi va ayrim yillardagi qiyosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Qishloq xo'jaligi sohalarining rivojlanishidagi masalalar va ularni hal etish yo'llari ko'rsatilgan.

В статье говорится о расположении производственных отраслей промышленности и сельского хозяйства в Элликалинском районе и приводятся сравнительные показатели за несколько лет. Рассматриваются также вопросы развития сельского хозяйства и пути их решения.

The article is devoted to the study of manufacturing branches of industry and agriculture in Ellikala region and the author shows the comparative indicators in these fields for several years. The author also studies the issues of the development of agriculture and ways of their decision.

УДК 538.958;538 975

THE INFLUENCE OF MICROWAVE RADIATION TO THE ELECTROPHYSICAL CHARACTERISTICS OF AU-TiB_x-GAAS DIODE STRUCTURE

S.G.Kaypnazarov – assistant teacher

Nukus Branch of Tashkent University of Informarion Technologies

Таянч сўзлар: диодли структура, электрофизик характеристика, микро тўлқин нурланиши, деградация механизми, ички механик кучланиш (ИМК), ЖИЧ нурлантириш, Шоттки диодлари, эгрилик радиуси, планар технология, кенгайтириш параметри.

Ключевые слова: диодная структура, электрофизическая характеристика, микроволновые излучения, деградационный механизм, внутреннее механическое напряжение (ВМН), СВЧ излучения, диоды Шоттки, радиус кривизны, планарная технология, параметр уширений.

Key words: diode structure, electro physical characteristics, micro wave radiation, degradational mechanism, internal mechanic stress, JYCh radiation, Schottky diodes, curvature radius, planar technology, broadening parameters.

Increasing the qualities and belief (warrantees) of semiconductor devices is one of the main tasks which have been put in front of the technologies recently. Researching the external effects to the device structures and devices made from Arsenide gallium, gives opportunity to manage

first of all, the researching the degradation mechanism of these devices and their electro physical parameters.

In this work we learn the electro physical features of Au-TiB_x-GaAs diode structure the effect of microwave radiation.